



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

2023

A decorative graphic in the bottom right corner consisting of several concentric, overlapping circles in shades of light blue and white, creating a ripple effect.

**XALQARO
NORDIK
UNIVERSITETI**

2023



MUNDARIJA



01	Rektor murojaati	09
02	Ochilish marosimi	10
03	Universitet haqida	14
04	Xalqaro hamkorlik	22
05	Xalqaro forumlar	26
06	Muhim tashriflar	32
07	Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti	36
08	Magistratura fakulteti	38

09	“Iqtisodiyot va biznesni boshqarish“ kafedrası	40
10	“Pedagogika“ kafedrası	43
11	“Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar” kafedrası	44
12	“Psixologiya va maktabgacha ta’lim” kafedrası	46
13	“Xorijiy tillar“ kafedrası	48
14	Universitet departamentlari	50
15	Foundation maktabi	52
16	Work and Travel dasturi haqida	54
17	Universitet hayoti	56



Sherzod Mustafakulov
Xalqaro Nordik universiteti rektori

REKTOR MUROJAATI:

Aziz do'stlar, qadrlil talabalar!

Bugun biz olimlar va ta'lim sohasida mehnat qilayotgan insonlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgan, intellektual salohiyat yanada qadrlanayotgan zamonda yashayapmiz. Barcha sohalarda eng obro'li va o'ta mas'uliyatli lavozimlar ham ijtimoiy, ham siyosiy faol, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan yoshlarga ishonib topshirilmoqda.

“Yangi O'zbekistonni albatta biz yoshlar bilan birga quramiz”, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga katta ishonch bildirar ekan. Shunday bir paytda bilim olish, tashabbuskorlik va mehnatsevarlik ko'rsatish, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, yurtimiz ravnaqi yo'lida tashabbus ko'rsatish barchangiz uchun sharafli va mas'uliyatli ishdir. Biz sizning aql-idrokingiz, kuch-g'ayratingizga ishonamiz va katta umid bildiramiz!

OCHILISH MAROSIMI

BIZ OCHILDIK!

Xalqaro Nordik Universiteti – bu Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya oliy ta'lim modeli va ilg'or standartlariga asoslangan xususiy oliy ta'lim muassasasi. Universitet ta'limning global tendensiyalari, kadrlarga bo'lgan talablar va yoshlarning kelajak umidlarini tahlil qilgan holda zamonaviy ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va ixtisosliklar bo'yicha raqobatbardosh, bilimli kadrlar tayyorlaydi.



Universitetning maqsadi - biznesning barcha bo'g'inlarida faoliyat yuritishni istagan, top menejer, iqtisodchi-konsultant, xalqaro moliyaviy tahlilchi, sanoat tarmoqlarini boshqaruvchi, IT bo'yicha kompleks masalalarni yechish, xorijiy tillarni o'rganish va ta'lim tizimida faoliyat yuritish istagidagi yoshlarga xalqaro sifatli oliy ta'lim olishlariga ko'maklashishdir. Shu maqsadda Universitet mamlakatning 14 ta ma'muriy hududi va qo'shni respublikalardan kelgan talabalarga ta'lim bermoqda.

2022-yil 8-sentabr kuni Xalqaro Nordik Universitetining tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan ushbu xalqaro universitetning ochilish marosimida Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysyanen va Finlyandiya milliy ta'lim agentligi direktori Samu Seitsalo boshchiligidagi delegatsiya, vazirliklar, idoralar, diplomatik korpus vakillari, viloyat rahbarlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.





Sherzod Mustafakulov
Xalqaro Nordik universiteti rektori

“ Ta’lim jamiyat, davlat va inson resursi rivojlanishining poydevori hisoblanadi. XNUning

boshqa oliygohlardan farqi akademik fanlar va ishlab chiqarish o’rtasida o’zaro integratsiyaning mavjudligidir. Ta’lim va tadqiqotlar yuqori malakali professor-o’qituvchilar tomonidan innovatsion o’qitish usullarida amalga oshiriladi. Inson kapitaliga ehtiyoj sezgan ko’plab xalqaro kompaniyalar, xususan Nokia, ISKU, Finnish Water forum, Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK) kabi 30 dan ziyod mashhur fin brendlari ta’lim loyihamizni har jihatdan qo’llab-quvatlab kelishmoqda.





“ O‘zbekistonda Finlandiya ta‘lim tizimini o‘rganish va joriy etish, yetuk kadrlar tayyorlashga xizmat qiluvchi Xalqaro Nordik universitetini ochishga muvaffaq bo‘ldik. Tantanali ochilishda shaxsan ishtirok etganimdan baxtiyorman! O‘zbekiston yoshlarida iqtidor va ilm olishga katta ishtiyoq bor. “Double degree” dasturi asosida universitet talabalariga Finlyandiyada ham sifatli ta‘lim olishlari, ta‘lim sohalarida professional bo‘lishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga tayyormiz. Biz O‘zbekistonda endi ta‘lim islohotlarining bir qismiga aylanganimizdan g‘ururlanaymiz!”



Petri Rayvo
Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti:



Sherzod Asadov
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot kotibi:

“ Poytaxtimizda Xalqaro Nordik universitetining tashkil etilishi xalqaro nufuzli universitetlarda yo‘lga qo‘yilgan ilg‘or tajribalar, innovatsion ta‘lim modellari, o‘quv reja va dasturlari asosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga katta hissa qo‘shishiga ishonaman va oliygo‘h faoliyatiga yuksak muvaffaqiyatlar tilayman!”





Samu Seytsalo
Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi direktori:



Finlyandiya va O'zbekiston ta'lim tizimi mas'ullari har ikki davlat uchun manfaatli masalalarda muzokaralar o'tkazib, ilg'or metodologiyalar asosida soha vakillarining malakasini oshirish, sifatli kadrlar tayyorlash orqali yanada kuchliroq hamjamiyat yaratishda hamkorlik qilmoqdamiz. Xalqaro nodavlat oliy ta'lim muassasasining tashkil etilishi uzoq yillarga mo'ljallangan strategik hamkorligimizda bog'lovchi platforma vazifasini o'taydi. Kelgusida minglab ilmtalab yoshlarga nafaqat O'zbekiston poytaxtida xalqaro bilimlarni egallash, balki xorijda, xususan Finlandiyada ta'lim olishlariga keng imkoniyat yaratadi.



UNIVERSITETIMIZ HAQIDA

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI HAQIDA NIMALARNI BILISH MUHIM?



Xalqaro Nordik universiteti 2022-yilda Toshkent shahrida O'zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining 10-yig'ilishidagi kelishuv asosida tashkil topgan, Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan xususiy oliygo'ndir.

2022-yil 8-avgust kuni universitet №034528 raqamli lisenziya asosida o'z faoliyatini boshlagan.

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Xalqaro Nordik universitetida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori asosida ilmiy daraja beruvchi **Ilmiy kengash** tuzilgan. Talabalarga universitetda magistraturadan keyin doktorantura va mustaqil izlanuvchilik institutida ilmiy tadqiqotlarini davom ettirish imkoniyati mavjud.

Eng zo'r imkoniyatlar bizda:

- 12 ta bakalavriat yo'nalishi;
- 6 ta magistratura mutaxassisligi;
- 6 ta PhD dasturi;
- double degree dasturi;
- kunduzgi va sirtqi ta'lim shakli;
- davlat va universitet grantlari.

NET

XNUda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining №057211 raqamli Guvohnomasi asosida **"Nordic" ilmiy-amaliy elektron jurnali** nashr etilmoqda. Jurnalda ilmiy maqolalar o'zbek, rus, ingliz va fin tillarida nashr etiladi.



Zamonaviy kasblar

01

MAKTABGACHA TAL'IM

Xalqaro standartlar va yangi ta'lim tizimi asosida ishlash uchun mutaxassislar tayyorlanadi

02

BOSHLANG'ICH TA'LIM

Umumiy o'rta ta'limda dars o'tish uchun barcha zarur bilim va ko'nikmalarga ega o'qituvchilar tayyorlanadi

03

MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

Moliyaviy tahlilni olib borish qobiliyatiga ega yetuk mutaxassislar tayyorlanadi

07

XALQARO BIZNES

Savdo, maslahat, tahlil va ma'muriy-boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlanadi.

08

SANOAT MENEJMENTI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori malakali menejerlar tayyorlanadi, ular barcha darajadagi boshqaruvni amalga oshiradilar

09

MUSIQA TA'LIMI

Musiqqa o'qituvchisi maktablarda tarbiyaviy ishlarni olib boradi va bolalarning qarashlari, e'tiqodlari, ehtiyojlari, didlari va ideallarini shakllantiradi

13

IQTISODIYOT (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)

Yuqori malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlanadi, ular iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida faoliyat olib boradilar

14

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (MAKTABGACHA TA'LIM)

Erta bolalik davridagi ta'lim nazariyalari va bolalarning kognitiv o'sishini rag'batlantiradigan, rivojlantiradigan mutaxassis bo'lib yetishadilar

15

TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVI

Ta'lim sektorini va ta'lim tizimini boshqaradigan pedagog-menejerlar tayyorlanadi

Oliy ma'lumotlilik isboti - bu murakkab masalalar haqida iloji boricha sodda gapirish qobiliyatidir

Ralf Valdo Emerson

Bakalavr darajasi

Magistr darajasi

04

05

06

IQTISODIYOT (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)

Korxonada iqtisodiyotini boshqaradigan, uning xarajatlari va daromadlarini optimallashtiradigan iqtisodchilar tayyorlanadi

XORIJIY TIL VA ADABIYOTI (INGLIZ TILI)

Ingliz filologlari va yuqori darajadagi tarjimonlar tayyorlanadi

KOMPYUTER INJINIRINGI

Kompyuter injiniringi va kompyuter tizimlarini loyihalashda murakkab muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega texnik xodimlar tayyorlanadi

10

11

12

MAXSUS PEDAGOGIKA (LOGOPEDIYA)

Maxsus pedagogika bo'yicha professional mutaxassislar tayyorlanadi

PSIXOLOGIYA (AMALIY PSIXOLOGIYA)

Psixologiya sohasida zamonaviy bilimlarga ega, aholiga psixologik xizmat ko'rsatishga qodir psixologlar tayyorlanadi

JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

Jahon iqtisodiyotidan xabardor, eksport-import operatsiyalarini mushohada va tahlil qiladigan kadrlar tayyorlanadi

16

17

18

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (BOSHLANG'ICH TA'LIM)

Boshlang'ich ta'limni tugatgan bitiruvchilar bolalarga matematika, til, tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich tushunchalarni, shuningdek hayotiy ko'nikmalarni bera oladi

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Pedagogik va psixologiyaning tarbiyaviy va rivojlanish masalalarini daqiq jihatlarigacha tushuna oladigan psixologlar tayyorlanadi

JAHON IQTISODIYOTI (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)

Jahon iqtisodiyotining mohiyati, mamlakatlarning iqtisodiy tarkibiy tuzilishi, rivojlanish tendensiyalari va modellarini puxta o'rgangan mutaxassislar tayyorlaydi

UNIVERSITETNING BOSHQARUV KENGASHI



Alisher Jo'rayev

Finlandiyaning O'zbekistondagi
faxriy konsuli,
Boshqaruv kengashi raisi

Boshqaruv kengashi a'zolari:



**Sherzod
Mustafakulov**
Xalqaro Nordik
universiteti
rektori



**Petri
Raivo**
Karelia Amaliy
fanlar
universiteti
Prezidenti



**Nuriddin
Muradullayev**
Xalqaro Nordik
universiteti
prorektori



**Jahongir
Karimov**
Invivo
kompaniyasi
asoschisi

UNIVERSITET RAHBARIYATI



UNIVERSITET MISSIYASI

Zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv dasturlari asosida sifatli ta'lim faoliyatini olib borish, o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, professor-o'qituvchilar, xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilgan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan iborat



ECTS TIZIMINI QO'LLASH

Universitetning o'quv, ilmiy tadqiqot faoliyatini **ECTS tizimi** asosida takomillashtirish



SMART ACADEMIC TIMETABLE

Smart Academic Timetable elektron ta'lim jarayoni dasturini ishlab chiqish (**Nordic** elektron o'quv, ilmiy va boshqaruv axborot kommunikatsiya platformasi asosida)



XALQARO STANDARTLARGA O'TISH

Universitetni xalqaro maydonda nufuzini oshirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqish, xalqaro akkreditatsiyadan o'tish bo'yicha ishlarni tashkil etish, xalqaro akkreditatsiya talablari asosida litsenziyaga ega bo'lish



QS, THE TIZIMLARIGA KIRISH

Xalqaro reyting agentliklari indikatorlari asosida ishlarni jadallashtirish, universitet rasmiy veb-saytini **Webometrics** reytingi talabidan kelib chiqib, Majestic va Ahrefs qidiruv mexanizmlari orqali optimallashtirish.



MAQOLALAR CHOP ETISH

Nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda (**Scopus, Web of Science, Springer bazalariga kiritilgan**) maqolalar chop etishni jadallashtirish



TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH

Hududiy rivojlanishga bag'ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirish, analitik hisobotlarni tayyorlash, interaktiv muloqotlarga malakali olimlar va mutaxassislarni jalb etish



MOOC TIZIMINI JORIY ETISH

Cheksiz miqdordagi ishtirokchilarni qamrab oluvchi **masofaviy ta'lim platformasini** ishga tushirish.



NORDIK INNOVATION

Iqtidorli talabalar seleksiyasini amalga oshirish va ular bilan maxsus dasturlar asosida **startup** loyihalarni ishlab chiqish



XALQARO HAMKORLIK

Xalqaro Nordik Universiteti –

Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya va boshqa shimoliy davlatlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlar uchun O'zbekistonda inson kapitali va biznesni rivojlantirish, ta'lim, startaplar hamda xalqaro loyihalar bo'yicha hamkorlik markazi, zamonaviy, innovatsion platforma.

HAMKORLIK YO'NALISHLARI



01

TA'LIM

sohasida xalqaro ta'lim agentliklari bilan aloqalarni rivojlantirish



02

UNIVERSITET

va xorijiy davlatlar ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirish



03

XORIJIY

hamkorlar bilan ikki va ko'p tomonlama memorandum va shartnomalar asosida uzviy rivojlanish



04

XALQARO

ilmiy-amaliy tadbirlar tashkillash, ilmiy xodimlar, doktorant, magistr va mutaxassislar uchun xorijiy ta'lim muassasalari hamda markazlarida o'qish, malaka oshirish, stajirovkalarni tashkil etish





STRATEGIK HAMKORLAR



Karelia amaliy fanlar universiteti



«Nokia» transmilliy korporatsiyasi



Finnish Water Forum



Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu



Solar Finland



«ISKU» kompaniyasi



XALQAROLASHUVNI TAMINLASH, HAMKOR TASHKILOTLAR SAFINI KENGAYTIRISH MAQSADIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN LOYIHALAR

01 O'zbekiston OTMLari rektor, prorektor va professor-o'qituvchilardan tarkib topgan delegatsiyalarning Finlyandiya, Shvetsiya va Estoniyaga ta'lim safarlarini tashkil etish, Yevropa davlatlari va AQSHning yetakchi ta'lim dargohlarida malaka oshirish kurslarini tashkil etish, innovatsion yechimlarni qo'llash bo'yicha bilimlarini oshirish

02 Qozog'istondan maktab direktorlari va pedagog-o'qituvchilardan iborat delegatsiyalarning O'zbekiston va Nordik davlatlariga safarlarini tashkil etish

03 Finlyandiyaning o'rta maktab bitiruvchilaridan iborat guruhlarining O'zbekistonga ta'lim va sayohat safarlarini tashkil etish

04 Talabalarning yozgi ta'til vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadida **“Work and Travel”** loyahasini amalga oshirish



XALQARO IMKONIYATLAR

Exchange asosida Finlandiya, Italiya, Amerika, Yaponiya va Koreya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lim olish mumkin. Bakalvriat va magistraturada Italiyaning dunyodagi 1400 ta universitet ro'yxatida 457-o'rinda turuvchi Trento universitetida o'qish imkoniyati.

XNU Amerika Qo'shma Shtatlaridagi bir nechta universitetlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Buning ilk samarasi sifatida 2024-yil yanvar oyidan ilk "Exchange" dasturlari boshlanadi.

Yevropaning qator mamlakatlari - Shvetsiya, Estoniya, Latviya, Litva, Italiya hamda boshqa davlatlar oliy ta'lim dargohlari, tadbirkorlik sub'yektlari va ilmiy-innovatsiya markazlari va boshqa yirik kompaniyalari bilan xalqaro aloqalar o'rnatilmoqda.



Finlandiyadagi Kareliya UAS bilan qo'shma dasturlar

"Xalqaro biznes", "Sanoatni boshqarish", "Kompyuter injiniringi" yo'nalishlarida xalqaro mutaxassislar tayyorlash va xalqaro diplomga ega (double degree) bo'lish



Xalqaro o'quv kurslari:

Respublika ta'lim sohasi vakillari uchun doimiy onlayn va offlayn tarzda, 100 nafardan ortiq qozog'istonlik pedagoglar, maktab direktorlari ishtirokida 5 ta fasl tashkil etildi



XNU ko'magida xorijdan jalb etilgan ekspertlar:

Finlyandiyaning ta'lim bo'yicha nufuzli ekspertlari viloyatlar hokimlarining ta'lim maslahatchisi faoliyatiga jalb etildi. Savoniya universiteti professori, 25 yillik tajribaga ega Petri Lunaskopri - Qashqadaryo viloyati hokimining ta'lim maslahatchisi

Work and travel

Dasturi asosida Finlandiya, Norvegiya, Daniya kabi Nordik davlatlar va AQSHda ish va sayohatni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar



XNU tomonidan uyushtirilgan ta'lim safarlari:

Finlandiyada xorijiy va mahalliy pedagoglar uchun 4 marotaba malaka oshirish kurslari tashkil etildi

XALQARO FORUMLAR

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI - XALQARO PLATFORMA! BIR YIL DAVOMIDA:

37
marotaba

Xalqaro Nordik universitetiga xalqaro tashriflar, muhim muzokara va uchrashuvlar



17
marotaba

Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida Finlandiyaga amalga oshirilgan ta'lim, ish va sayohat tashriflari, press-turlar



17
marotaba

Xalqaro vebinarlar, seminar-treninglar, forum va konferensiyalar



5
marotaba

Xalqaro ilmiy-amaliy o'quv kurslari



28
ta

Innovatsion-korporativ hamkorlik memorandumlari



“O‘ZBEKISTON-FINLYANDIYA XALQARO BIZNES-FORUMI”



2022-yilning 1-2-noyabr kunlari Xalqaro Nordik universiteti va Saipro Group tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ko‘magida O‘zbekistonda ilk bor biznes-forumi tashkil etildi.



Honka,
Mariya Turenkova



Finnish Water Forum,
Mr. Arvo Nerman



Reka cables,
Markku Rentto



Agronic,
Tanja Pylsy



“O‘ZBEKISTON-FINLYANDIYA XALQARO BIZNES-FORUMI”

Biznes-forum ishtirokchilari: ikki davlat vazirlik va idoralari, dunyoning yetakchi fin kompaniyalari, xususan, Nokia, Reka Cables, FinnPartnership, Honka, Kone, Suokone, Finnish Water Forum, ECONET Oy kabi 30 dan ortiq kompaniya rahbarlari va mutaxassislari, Finlyandiyaning XAMK amaliy fanlar universiteti vakillari.

ECONET

nanopar

**EAST/CHAM
FINLAND**



**REKA
K A B E L**



XAMK

**INSINÖÖRITOIMISTO
POHJATEKNIikka OY**

KLINKMANN

AGRONIC

KONE

MIKSEI MIKKELI

SUOKONE

HONKA

EPSE

Finnpartnership



XAMK,
Niko Arola



Leinonen,
Tuomas M. Pukkala

Natijalar:

- * yetakchi fin kompaniyalari bilan mahalliy biznes vakillarining B2B, B2G formatdagi uchrashuv va muzokaralar;
- * intellektual va texnologik hamkorlik borasida memorandumlar;
- * Toshkent shahrida Markaziy Osiyo bo'yicha yangi "Econet Central Asia" korxonasi asos solindi.

“FINLYANDIYA TA’LIM KECHASI”



2023-yil 21-fevral kuni XNUda 50 nafar nufuzli mehmonlar, jumladan, Finlyandiya Respublikasi Taraqqiyot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri Villi Skinarri hamda Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysenyan, Kareliya UAS Prezidenti Petri Rayvo, yirik fin kompaniyalari rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari ishtirokida ta'lim kechasi o'tkazildi.

Maqsad: O'zbekiston va Finlyandiya mamlakatlari o'rtasida ta'lim va biznes sohasidagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, qo'shma ilmiy va akademik loyihalarni amalga oshirish, xalqaro grantlarda ishtirok etish, ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish.



Natijalar:

- * Finlyandiya Hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri Villi Skinarri hamda Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysenyanga “Faxriy doktor” ilmiy unvoni topshirildi;
- * XNU va Kareliya UAS o'rtasida tuzilgan bitim imzolandi;
- * UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan Anglashuv memorandumini imzolandi.





XALQARO SEMINAR-TRENING

XNU va Kareliya UAS hamkorligida 2023-yil 5-8-iyun kunlari “Bolonya jarayonlari, oliy ta’limda sifatni boshqarish tamoyillari” va “Yevropa tadqiqot hududi va global mas’uliyat” mavzularida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar uchun trening tashkil etildi.

Natijalar:

fin ekspertlaridan Finlyandiya oliy ta’limi va amaliy fanlar universitetlari, mehnatga asoslangan va amaliy UAS pedagogikasi, XNUdagi amaliyotlar bilan tanishildi;

* Boloniya jarayoni va Yevropa ta’limi, oliy ta’limda sifat menejmenti tamoyillari, kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlari bo‘yicha zamonaviy tajribalar o‘rganildi.

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2023-yil 28-30-mart kunlari Finlyandiyaning Xelsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi (Rule of law centre), Toshkent davlat yuridik universiteti va XNU tashkilotchiligida “Huquq ustuvorligini ta’minlash: Finlyandiya tajribasi” mavzusida konferensiya tashkil etildi.

Natijalar:

* qonun ustuvorligi bo‘yicha dunyoda peshqadam davlat - Finlyandiya tajribasi keng o‘rganildi;

* kengashuv orqali va qo‘shma ta’lim dasturlari, qonunchilik institutlarining funksional imkoniyatlari doirasida qonun ustuvorligi va demokratik jarayonlarni mustahkamlash tashabbusi ilgari surildi.

“MEHNAT MIGRATSIIYASI XALQARO FORUMI - 2022”

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida ilk bor 22-23-noyabr kunlari yangi keng formatda, 6 ta davlat rasmiy doiralari ishtirokida “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasining afzalliklari” mavzusida forum o‘tkazildi.

Natijalar:

- * mehnat muhojirlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, global migratsiya jarayonlarining tendensiyalari va harakatlantiruvchi kuchlari, migratsiya siyosati va ijtimoiy sohaga ta’siri kabi asosiy masalalar muhokama qilindi;
- * XNU va “Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi” davlat unitar korxonasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumini imzolandi.
- * XNU rahbariyati O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan Tashakkurnoma bilan taqdirlandi.



MUHIIM TASHRIFLAR



01

2022-YIL 6-OKTYABR

Finlandiyaning **Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu** (SYK) maktabi direktori, o'qituvchi va o'quvchilari O'zbekistonga tashrif buyurishdi.



02

2022-YIL 11-NOYABR

Stokgolm universiteti vakili **Annica Kallebo** (PhD) tashrif buyurdi va professor-o'qituvchilarimizga global miqyosda istiqbol, maktabgacha ta'limini tashkil qilish borasida ma'ruza qildi.



03

2022-YIL 15-NOYABR

Shvetsiyaning O'zbekistondagi elchisi **Tomas Danestad** tashrif buyurdi. Elchi janoblari oliygoah faoliyati, strategik rejalar bilan tanishdi. Shvetsiya bilan ta'lim, ilm-fan borasida hamkorlik o'rnatildi.

04

2022-YIL 17-DEKABR

Kareliya UAS Prezidenti **Petri Raivo**, Xalqaro ishlar departamenti boshlig'i **Liisa Timonen** va Akademik ishlar departamenti boshlig'i **Ulla Asikainen** tashrif buyurdi.



05

2022-YIL 27-OKTYABR

BMT Bolalar jamg'armasi **UNICEF**ning Ta'lim bo'limi boshlig'i **Alberto Biankoli** tashrif buyurdi. Ta'lim siyosati, xalqaro va milliy islohotlarni muvofiqlashtirish, istiqbolli loyihalarni hayotga tatbiq etishda kelishuvga erishildi.



06

2022-YIL 16-NOYABR

Finlandiya tashqi ishlar vazirligining Markaziy Osiyo bo'yicha jamoa rahbari **Olli Nurmi** Finlandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi **Ilkka Raysyanen** hamrohligida tashrif buyurdi.





07

2023-YIL 8-iyul

Uppsala universiteti huzuridagi Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari instituti (IRES) direktori (Shvetsiya) **Mark Bassin** bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



08

2023-YIL 20-SENTYABR

Jahon bankining Ta'lim masalalari bo'yicha yuqori darajali rahbari **Rita Almeida**, bank bosh iqtisodchisi janob **Hiroshi Saeki**, bank Toshkent offisining ta'lim masalalari bo'yicha mutaxassisi **Viktoriya Babakhodjaeva**lar tashrifi bo'lib o'tdi.



09

2023-YIL 30-SENTYABR

Finlandiya siyosatchisi va sobiq Adliya vaziri, Helsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi direktori, professor **Tuija Brax** hamda uning yordamchisi Juho Eero Aleksii Pitkanen universitetimizga tashrif buyurdi.

10

2023-YIL 28-MAY

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili **Terhi Hakala** xonimning universitetimiz rahbariyati bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.



11

2023-YIL 11-OKTYABR

Finlandiyaning YXHTdagi doimiy vakili, elchi janoblari **Vesa Hakkien**, YXHT Finlandiya delegatsiyasining harbiy maslahatchisi, kapitan janob **Jakko Jantti**, YXHT Finlandiya delegatsiyasining maxsus maslahatchisi janob **Riku Rantanen** va YXHT raisi o'rinbosari **Toni Sandell** universitetga tashrif buyurdilar.



12

2023-YIL 9-FEVRAL

UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari janob **Munir Mamedzade** boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. UNICEFning hamkorlik dasturlarida ishtirok etish bo'yicha muzokara o'tkazildi.



“IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA” FAKULTETI



Elshod Umarov
Dean

Elshod Umarov's Education: Bachelor's Degree in Marketing, Tashkent State Technical University. Awarded the National Stipend Named after A.Navoiy. Master's Degree in Economics, Tashkent State University of Economics. Master's Degree in International Trade and Cyber Area Studies, Chonbuk National University, South Korea. Vision for the Faculty: Elshod Umarov envisions the Faculty of Economics and Pedagogy as a hub of innovation and academic excellence.

FACULTY PRIORITIES

1

O'quv faoliyatini ECTS kredit-modul tizimi asosida tashkil etish



5

Mustaqil ta'lim komponentini keskin oshirish



2

Masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish



6

Quality Assurance Unit ni tashkil etish



3

Yozgi va qishki maktablarni tashkil etish



7

Ustoz-shogird tizimini muvofiqlashtirish



4

Kafedralarning o'quv, ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish



8

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish



Kadrlar tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, universitetning ta'lim sohasidagi umumiy maqsadlarini fakultet miqyosida amalga oshirish bizning bosh maqsadimizdir.

FAKULTET DEKANATINING VAZIFASI:

Talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, dars jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni joriy etish.



MAGISTRATURA FAKULTETI

Magistratura fakulteti tegishli ta'lim mutaxassisliklari bo'yicha talabalarni o'qitish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini uzviy va uyg'unlashgan holda olib borish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, ilmiy faoliyatini tashkil etish hamda shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kafedralarda ilmiy-tadqiqot loyihalarini bajarish ishlarini muvofiqlashtirishga ko'maklashadi.



Xamidova Zulfiya Axmadjonovna Magistratura fakulteti dekani

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent, 2 ta o'quv qo'llanma va monografiya muallifi. Milliy va xorijiy doirada 45 dan ortiq maqola hamda tezislari chop etilgan.



Fakultet o'z tarkibidagi quyida magistratura ta'lim mutaxassisliklari kafedralarining o'quv va ilmiy laboratoriyasini birlashtiradi:

1 "Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar"

2 "Pedagogika"

3 "Iqtisodiyot va biznesni boshqarish"

4 "Psixologiya va maktabgacha ta'lim"



Fakultetning asosiy vazifalari:

- ✓ Universitetning akademik missiyasini boshqarishda ishtirok etish;
- ✓ Fakultet tomonidan taklif etiladigan o'quv dasturlarini mehnat bozoriga muvofiq yangilab borishni ta'minlash;
- ✓ O'zgaruvchan tendensiyalar va talablarga javob beradigan to'garaklar va o'quv kurslarini tashkil etish;
- ✓ Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ustoz-shogird tizimini yo'lga qo'yish va boshqalar.

” Fakultetning maqsadi

Mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, universitetning ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi umumiy maqsadlarini fakultet miqyosida amalga oshirishdan iborat.

Kafedraning strategik rejalari



Sharoit

01

Talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni amaliyotga puxta tayyorlash va ishga joylashishlari uchun keng qamrovli ishlarni amalga oshirish

02

Iqtidorli talabalarni kashf etish va ularni ilmiy ishlarga jalb qilish, raqobatbardosh kadr bo'lishlariga ko'maklashish



Jarayon



Amaliyot

03

Ta'lim va tadqiqot komponentini uyg'unlashtirish orqali hamkorlik aloqalarini keng yo'lga qo'yish



Mirzakul Tulayev Salamovich
Kafedra mudiri, dotsent

Tadqiqotlarni rivojlantirish

Kafedrada akademik sifat va ilmiy natijalarga erishishda qo'l keladigan ijodiy muhit yaratish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish

Tajribalar almashinuvi

Raqobatbardosh muhit yaratish, tadqiqotlarning ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish

IQTISODIYOT VA BIZNESNI BOSHQARISH KAFEDRASI

Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasida iqtisodiyot, moliya sohalari bo'yicha jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan mutaxassislar tayyorlaydi

Bizning vazifamiz:



1

Biznes olamida global fikrlash, xalqaro hamkorlar bilan samarali aloqalar o'rnatish mahorati va biznes kompaniyalarida mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega kadrlar tayyorlash



2

Mehnat bozoriga kuchli biznes-maslahatchi, biznes tahlilchisi, korporativ investitsiyalar bo'yicha bankir, inson resurslari bo'yicha mutaxassis, boshqaruv bo'yicha maslahatchi, marketing, mahsulot va xaridlar bo'yicha menejer mutaxassislar tayyorlash



3

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib boruvchi yosh tadqiqotchilarning yangi avlodini tayyorlash





Xalqaro Nordik universitetining
“Pedagogika” kafedrasini 2022–yil
29–avgustda o‘z faoliyatini boshlagan.

Miralievna Dilafruz Taxirovna
Kafedra mudiri, PhD

O‘quv-uslubiy sohada

01

Malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta‘lim dasturlari bilan qiyosiy tahlilini muntazam ravishda olib borish

02

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ustoz-shogird ishlarini tashkil etish

03

Zamonaviy o‘quv adabiyotlarini va ilmiy tadqiqotlar sohasida monografiyalar tayyorlash

04

Turdosh kafedralar tomonidan tayyorlangan o‘quv dasturlariga taqdir va xulosalar berish

05

Talabalar bilimini xolis baholanishini ta‘minlash va nazorat qilish

06

Talabalarining amaliyoti, xalqaro loyihalari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlariga va yakuniy loyiha ishlariga rahbarlik qilish

07

Professor-o‘qituvchilarning tizimli ravishda respublika va xorijda malakasini oshirib borishlarini tashkil etish

08

Iqtidorli talabalarni tanlash, ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va nomdor stipendiyalar, respublika va xalqaro miqyosida turli tanlov, fan olimpiadalarida ishtirok etishga tayyorlash

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

Pedagogika kafedrası Iqtisodiyot va pedagogika fakultetining qoshida ochilgan bo'lib, kafedrada o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ustoz-shogird ishlarni, shuningdek, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish hamda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi.



TA'LIMNING YANGI BOSQICHLARIGA O'TISH

1 MASOFAVIY TA'LIM

Mutaxassislar tayyorlash tizimidagi barcha fanlar kompleks tarzda masofaviy o'qitilib, talabaning mustaqil fikrlash va bilim olish, izlanish va fikrlashga o'rgatadi. Qulay vaqt va muhitda ta'lim olish imkonini beradi

2 DUAL TA'LIM

Yuqori infratuzilmaviy modul hisoblangan dual ta'lim talabalarga ham o'qish, ham o'z yo'nalishiga mos ishda faoliyat olib borish imkonini beradi. Dual ta'lim orqali universitet bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lanmoqda

3 INKLUZIV TA'LIM

Inkluziv ta'limning o'quv jarayoniga joriy etilishi aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyat, teng sharoit taqdim etadi. Ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlaydi va izchil ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratadi

SANOATNI BOSHQARISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR


Kafedraning ustuvor maqsadlari to'rtinchi sanoat inqilobi jarayonida raqobatbardosh va o'z kasbining yetuk mutaxassislarini tayyorlash, kompyuter fanlaridan amaliy kurslarda ta'lim berish orqali giper-bog'langan jamiyat uchun zarur bo'lgan iste'dod egalarini tarbiyalashga qaratilgan.




Xasan Sabirov Nusratovich
Kafedra mudiri, PhD



Kafedraning asosiy vazifalari:



Talabalarda ijodiy lider bo'lishlari uchun kompyuter va biznes tajribasini oshirishga qaratilgan, amaliy mashg'ulot va ko'nikmalarga yo'naltirilgan, axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv dasturini taklif etadi



Sanoat yoki biznes boshqaruvi bo'yicha vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy loyihalar va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniyatlariga ega salohiyatli kadrlar, muvaffaqiyatli rahbarlar tayyorlanadi

To'garak va seminarlar:

A

YOSH DASTURLOVCHILAR

B

XALQARO BIZNESMENLAR

C

KELAJAK TADQIQODCHILAR

D

EKONOMETRIKA VA ILMIY TADQIQOTLARNI OLIB BORISH



Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamon bilan hamnafas bo'lgan yangi bilimlarni egallagan, Vatan ravnaqi uchun o'zini mas'ul deb biluvchi, mustaqil, tahliliy va kreativ fikrlaydigan, raqobatbardosh, xalqaro andozalar asosida faoliyat yurita oladigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash.

PSIXOLOGIYA VA MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI

Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası 2022 yil Pedagogika kafedrası qoshida tashkil etilgan bo'lib, mustaqil ravishda 2023 yilning avgust oyidan o'z faoliyatini yurita boshladi. Kafedra Iqtisodiyot va pedagogika fakultetining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi, unda bir necha turdosh fanlar bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ustoz-shogird, shuningdek, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish hamda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi.



Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishda

Kafedra professor-o'qituvchilari talaba yoshlarni istiqbolli kelajak sari intilish, kasbiy kamolotini rivojlantirish, tarixiy sanalar, milliy bayramlar, qadriyatlar munosabatini rivojlantirishda turli mavzular bo'yicha yetuk mutaxassislar ishtirokida hamda O'zbekiston va Finlyadiyaning Kareliya amaliy universiteti talabalari uchun maqsadli uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etilmoqda.



**Lutfullaeva
Nigora Xalimbaevna**
Kafedra mudiri, Phd, dotsent

Kafedraning asosiy faoliyat yo'nalishlari:



O'quv shakllari bo'yicha oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuzilgan o'quv rejalaridagi fanlar bo'yicha belgilangan mashg'ulot turlarini yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada o'tkazish, ta'lim sifatini ta'minlash



Professor-o'qituvchilarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ustoz-shogird ishlarni tashkil etish



Malaka talablari, o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim dasturlari bilan qiyosiy tahlilini muntazam ravishda olib borish

JAHON TILLARI KAFEDRASI



Kafedra qoshida:

- ✓ Kafedra ilmiy salohiyatini oshirish
- ✓ Universitet professor-o'qituvchilari uchun ingliz, rus, turk tillari to'garaklari
- ✓ Kafedra akademik faoliyat sifatini rivojlantirib borish
- ✓ Umumiy ingliz tili to'garaklari (Beginner - Intermediate)
- ✓ IELTS kurslari faoliyat yuritmoqda
- ✓ Universitet professor - o'qituvchilarining muntazam chet tili ko'nikmalarini shakllantirib borish maqsadida kurslar tashkil etilgan
- ✓ Magistratura talabalar uchun til sertifikatlari (IELTS va CEFR) ni olishga qaratilgan intensiv kurslar
- ✓ O'zlashtirishi past bo'lgan bakalavr talabalari uchun qo'shimcha til va fan to'garaklari faoliyat yuritmoqda



Ikkinchi til sifatida

Ingliz, rus va fin tillari tanlov fan shaklida taqdim etiladi.

**Dilshod Nasriddinov
A'zankulovich**
Kafedra mudiri, PhD



Kafedra kesimida o'qitiladigan majburiy fanlar ro'yxati:

- Tinglash va so'zlashish ko'nikmalari
- O'qish va yozish ko'nikmalari
- Amaliy grammatika
- Amaliy fonetika
- Mamlakatshunoslik
- Ingliz (Britaniya) adabiyoti
- Amerika adabiyoti
- Ingliz madaniyati
- Leksikologiya
- Tarjima nazariyasi
- Diskurs tahlil
- Kino va adabiyot
- Insho yozish
- Ingliz tili o'qitish metodikasi
- Ingliz tili stilistikasi
- Akademik yozish
- Nordik mamlakatlari adabiyoti
- Nazariy grammatika
- Ingliz tili tarixi
- Kasbga yo'naltirilgan fin tili
- Tilshunoslik

Kafedra faoliyati:

Fin tilidan xorijlik mutaxassis
(native speaker) amaliy
mashg'ulotlarni olib bormoqda

Rus tili fanidan Xalqaro C1 va C2
sertifikatlariga ega bo'lgan
malakali professot-o'qituvchilar
faoliyat yuritmoqda

Nemis tili fanidan Germaniyada bir
necha bor o'z malakasini oshirib
qaytgan hamda ilmiy darajaga
(PhD) ega bo'lgan mutaxassis dars
mashg'ulotini olib boradi



**HR VA XODIMLAR
MALAKASINI
OSHIRISH
DEPARTAMENTI**

01

**AKADEMIK ISHLAR
DEPARTAMENTI**

02

**ILMIY-INNOVATSION
TADQIQOTLAR
DEPARTAMENTI**

03

**MOLIYA VA
REJALASHTIRISH
DEPARTAMENTI**

04

IT DEPARTAMENTI

05

UNIVERSITET DEPARTAMENTLARI

06

**YOSHLAR ISHLARI
DEPARTAMENTI**

07

**QABUL
JARAYONLARINI
TASHKIL ETISH
DEPARTAMENTI**

08

**XALQARO
ALOQALAR
DEPARTAMENTI**

09

**XORIJIY SAFARLARNI
TASHKIL ETISH
BO'LIMI**

10


**OPERATSION
DEPARTAMENT**

FOUNDATION MAKTABI

Foundation dasturi nima?

Foundation dasturi salohiyatli yoshlarni saralab, o'qishini Xalqaro Nordik universitetida to'g'ridan - to'g'ri ikkinchi yoki birinchi kursdan davom ettirish imkonini beruvchi dastur.

Afzalliklari






Foundation dasturi kimlar uchun?

9, 10 va 11-sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilar Xalqaro Nordik universiteti Foundation dasturida tahsil olish imkoniga ega. Bundan tashqari, maktab attestatiga ega bo'lgan barcha yoshlar ham Foundation dasturiga hujjat topshirishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni

Foundation dasturida darslar malakali va xorijdan kelgan ustozlar tomonidan olib boriladi. Dars vaqtlari talabalarga qulay vatqda tashkil qilinadi.



WORK AND TRAVEL





UNIVERSITET HA YOTI





Idea Author: *Sh.Mustafakulov*
Text editor: *M.Isaqova*
Designers: *O.Raximberdiyev, Sh.Olimov*
Photographers: *R.Shodmonov, A.Ismoilov*



For **appeals:**



Toshkent city, Chilanzar dist.,
Bunyodkor str., 8/2



info@nordicuniversity.org
lms.nordicun.uz



+(998 55) 508 44 00
+(998 95) 505 33 00

Social networks:

-  nordicuniversity.org
-  @nordic_edu
-  @nordicuniversity.edu
-  @nordic_edu
-  @nordic_edu

Murojaat uchun:



Toshkent sh., Chilonzor t.,
Bunyodkor k., 8/2



info@nordicuniversity.org
lms.nordicun.uz



+(998 55) 508 44 00
+(998 95) 505 33 00

Ijtimoiy tarmoqlar:



nordicuniversity.org



@nordic_edu



@nordicuniversity.edu



@nordic_edu



@nordic_edu